

## “BOBURNOMA” ASARIDAGI TARIXIY SHAXSLAR.

*Xoliqulova Zarnigor Azim qizi*

*Termiz davlat universiteti*

*Filologiya va tillarni o`qitish fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

*06984404@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasi Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub necha asrlardan buyon muhtasham tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelayotgan “Boburnoma” asaridagi o`z davrining har sohada yetuk bo`lgan tarixiy shaxslari tavsif etiladi.

**Kalit so`zlar:** Memuar, tarixiy-ilmiy asar, tarixiy shaxslar, Sulton Ahmad Mirzo, Husayn Boyqaro, Yunusxon, Alisher Navoiy, Qutlug` Nigor oyim, Xonzoda begin.

**Аннотация:** В этой статье описываются исторические личности своего времени, которые были совершенны во всех областях в произведении «Бобурнаме», которое принадлежит перу Захириддина Мухаммада Бабура, истинного примера правителя эпохи Возрождения, и удивляет мировых ученых на протяжении веков как великолепное историческое и литературное наследие.

**Ключевые слова:** Мемуары, историко-научное произведение, исторические личности, Султан Ахмад Мирзо, Хусайн Бойкар, Юнусхан, Алишер Навои, Кутлуг Нигор ойим, Ханзода бегум.

**Abstract:** This article describes the historical figures of their time who were accomplished in every field in the work "Boburnoma", which belongs to the pen of Zahiriddin Muhammad Babur, a true example of a ruler of the Renaissance, and has been surprising world scholars for centuries as a magnificent historical and literary heritage.

**Keywords:** Memoir, historical and scientific work, historical figures, Sultan Ahmad Mirzo, Husayn Boykaro, Yunuskhan, Alisher Navoi, Kutlug` Nigor oyim, Khanzoda begum.

Barchamizga ma`lumki yer yuzidagi har bir millatning o`zligi, madaniyati, tarixi, udum-an`analari shakllanishida asosiy sababchi vosita bu kitobdir. Chunki kitoblar jamiyki xalqlarning o`tmishini, udum-an`analarini, buyuk ajdodlari, go`zal maskanlari haqidagi qimmatli ma`lumotlarni asrlar osha opichlab, kelajak ertasi bo`lgan avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Kitoblardagi tarixiy sahifalarni varaqlaganimizda, har bir satr ortida kechmish asrlarning nafasi ufurib turgandek

bo`ladi. O`tgan zamonalarning quvonchlari va iztiroblari, sultanatlar shukuhi va qahrining aks-sadosi bizgacha yetib kelgan bebaho durdonalar orqali anglashiladi.

Jahon va o`zbek adabiyotida turli xalqlarning o`tmishini yorituvchi qator bebaho asarlar mavjud. Bularga turkiy va mog`ul sultanatlari tarixini o`zida mujassam etgan Rashidiyning “Jome` ut-tavorix”, shaxsiy tajribalar, siyosiy qarashlar va boshqaruv tamoyillari aks etgan “Temur tuzuklari”, Markaziy Osiyo xonliklari, jumladan, Xiva xonligining 13- 17 asrlargacha bo`lgan tarxini o`z ichiga olgan “Shajarayi turk”, Xorazmning 1843-1846- yillardagi tarixi tasvirlangan Ogahiyning “Zubdat ul-tavorix”, o`zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar “Boburnoma”, o`rta asr tarixnavisligining noyob manbasi bo`lgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va shu kabi noyob durdonalarni misol sifatida keltirib o`tishimiz mumkin.

Bu kabi manbalar o`z davrining guvohi sifatida tarixning qimmatli sahifalarini yozib qoldirgan. Ammo ular orasida shunday bir asar borki, u nafaqat tarixiy haqiqatlarni bayon etadi, balki muallifning his-tuyg`ulari, orzu- umidlari, kechinmalari bilan ham o`zgacha qadriyatiga ega. Bu- vatanimiz tarixidagi takrorlanmas siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari.

“Boburnoma”- adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o`z davridagi ko`plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osioning ko`plab tog`lari, daryolari, o`rmon va cho`llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisidiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma`umotlar jamlangan. Asarda tarixning Bobur yashab o`tgan davri voqealar ifodalangan. Bu voqealar Samarqand, Andijon, Xo`jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo`lgan qamrovga ega. Ya`ni unda O`rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo`lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

“Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo`nda, ta`sirchan, eng muhim hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e`tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alaohida kishilarning ta`riflariga jiddiy ahamiyat beradi.

Asarda o`sha davr kishilarining haqqoniy, real tasvirlari berilgan. Bu narsalar esa Boburning bergen ma`lumotlari ishonchli va haqiqat ekanligini ta`minlagan.

“Boburnoma” Amir Temur, Shohrux Mirzo, Abusaid Mirzo, Ulug`bek, Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydulloxon, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Ahmad Tanbal, Xisravshoh, Ismoil Safaviy, Badiuzzamon Mirzo, Abdulatif Mirzo, Rana Sanga singari shoh va shahzodalar, amir va beklar, pir-murshidlar haqida muhim tarixiy ma`lumotlarni o`zida aks ettirgani bilan bag`oyatda qimmatlidir.

Bobur hukmdorlardan Sulton Ahmad mirzon haqida ma`lumot berar ekan uning shakl-shamoyili haqida ham quyidagi ma`lumotlarni ta`kidlab o`tadi: “ Baland bo`yluq, qunqor soqollik, qizil yuzluq, tanbal kishi erdi. Soqoli engagida erdi. Bisyor

xushmuxovara kishi erdi". Muallif Ahmad Mirzoning hech narsa o`qimagan savodsiz ekanligini, shaharda ulg`aygan bo`lishiga qaramasdan to`g`riso`z va soddaligini, iste`doddan bebahra ekanligini, ammo adolatli kishi bo`lganligini aytib o`tadi.

Yana bir hukmdor Sulton Mahmud Mirzo bo`lib, u past bo`yli, siyrak soqolli, semiz, kamhafsalaroq kishi deya ta`riflanadi. Muallif Mirzoning fe`l- atvori haqida yoza turib namozni kanda qilmasligini, tartib va boshqarish qobiliyati juda yaxshi ekanligini, hisob ilmini puxta bilishini ta`kidlaydi.

Bobur o`z asarida Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro haqida hurmat bilan yozadi: "Shujo va mardona kishi erdi. Temurbek naslidin hech kim ma`lum emaskim, Sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo`lg`ay. Tab`i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi Husayniy edi. Ba`zi baytlari yomon emastur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur." Muallif Husayn Boyqaroning zamonini bir ajoyib zamon edi, deb baholaydi, uning kichiklardek qo`chqor saqlab, kabutar saqlab, kabutarbozlik qilish, xo`roz urushtirish kabi qiziq odatlari borligini ham aytadi.

Bobur mirzo bobosi Ynusxonga ham alohida to`xtalib, ul zotning Chingizzxonning ikkinchi o`g`li Chig`atoy naslidan ekanligini ta`kidlaydi va Chingizxonacha bo`lgan shajarasini sanab o`tadi.

"Boburnoma"da adabiyot va san`at ahli, ilm- ma`rifat kishiariga ham munosib o`rin berilgan. Unda Jomiy, Suhayliy, Sayfiy Buxoriy, Yusuf Badiiy, Hiloliy, Binoiy, Alisher Navoiy va boshqa so`z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud.

Ijodkor ko`plab shoirlar ichida ulug` shoir Alisher Navoiyga alohida to`xtalib o`tadi:" Alisherbek naziri yo`q kishi erdi. Turkiy til bila she`r aytubturlar, hech kim oncha ko`p va xo`p aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana biri "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq...".

Bundan tashqari asarda tarixiy ayollar nomlarining keltirilishi ham alohida o`rin egallaydi. Muallif otasining xotin va kanizlari, qizlarini tilga oladi. Xususan, o`zining onas- Qutlug` Nigorxonim. U Yunusxonning ikkinchi qizi Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi edi. Bobur buvisi- Eson Davlatbegim, hamda xolalari- Mehr Nigorxonim va Xub Nigorxonimlar haqida ham yozadi.

Shu bilan birgalikda asarda Poshobegim, Suton Nigorxonim, Zuhrabegim og`a, Bikabegim, Poyanda Sultonbegim, Oqbegim, Zaynab Sultonbegim, Oysha Sultonbegim, Xadichabegim, Opoqbegim, Begisulton og`acha va boshqa ko`plab ayollar nomlari, ularning nasl-nasabi va fe`l atvori haqida qimmatli ma`lumotlar mavjud.

Shunday qilib, ijodkor o`z xotiralarini badiiy uslubda sodda va ravon bayon etadi. Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek ushbu asar bugungi avlod uchun ham katta saboq beradi, chunki u shunchaki hukmdor xotirlari emas, balki inson irodasi,

hayotning murakkab sinovlari va tarixning o`ziga xos kechinmalarini aks ettirgan betakror durdonadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. “O`qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2008
2. Nusratullo Jumaxo`ja, Iqboloy Adizova “O`zbek adabiyoti tarixi” (XVI-XIX asri yarmi). Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2020.
3. Hasanxo`ja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
4. <https://cyberleninka.ru>
5. <http://www.insonhuquqlari.uz>